TURIZMNING JAMIYAT IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI.

Mamasoliev G‘ayratbek Maxamadyusupovich
Andijon davlat universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchi.

Annotasiya. Mazkur maqolada turizmning jamiyat iqtisodiyotida tutgan o‘rni yoritilgan. Unda ushbu sohaning jamiyat iqtisodiyotdagi ahamiyati, turizmga ta’sir ko‘rsatuvchi umumiqtisodiy omillar, O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar: iqtisodiyot, turizm, turizmning ahamiyati, turistik korxonalar daromadlari, turistik harajatlar, turizmga ta’sir etuvchi omillar.

Аннотация. В данной статье освещается роль туризма в экономике общества. В нем представлена подробная информация о значении данной сферы в экономике общества, об общих экономических факторах, влияющих на туризм, о целевых показателях реализации Концепции развития сферы туризма в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: Экономика, Туризм, значение туризма, доходы туристских предприятий, туристские расходы, факторы, влияющие на туризм.

Annotation. This article covers the role of tourism in the economy of society. It provides detailed information about the importance of this industry in the economy of society, general economic factors affecting tourism, targeted indicators of the implementation of the concept of development of the tourism sector in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: economy, tourism, importance of tourism, income of tourist enterprises, tourist expenses, factors affecting tourism.

Kirish

Hozirgi kunda turizm dunyo bo’ylab jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunida turizm tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: turizm - jismoniy shaxsning vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo‘nab ketishi (sayohat qilishi).

Iqtisodiyot va turizm bir-biri bilan uzviy bog‘liq husoblanadi. Turizmning rivojlanishi bilan mamlakat iqtisodiyoti ham yuksalib boradi, y’ani turizmning rivojlanishi yalpi mamlakat iqtisodiyotida ichki mahsulot hajmining o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakat iqtisodiyotidagi pasayish turistik xizmatlarning taklifini kamayishiga olib kelishi mumkin.

ISSN 3030-3907

Shu sababli, turizmga ta’sir ko‘rsatuvchi umumiqtisodiy omillarni bilish o‘ta muhim masalalardan biri hisoblanadi. Turizmga ta’sir etuvchi omillar ikki guruhga ajratiladi - ijobiy omillar yoki salbiy omillar.

Turizmga quyidagi omillar ijobiy ta’sir etadi:

1. Aholi real daromadining oshishi.
2. Daromadning tekisroq taqsimlanishi.
3. Valyutaning barqaror holati.

Quyidagi omillar turizmga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar hisoblanadi:

- iqtisodiy inqiroz holatlari;
- ishsizlikning oshishi, ish haqining kamayishi va xokazolar;
- valyutaning nobarqaror holati.

Hozirgi dunyoda turizm industrial shaklga ega:

- samaradorlikning yuqori darajasi, investitsiyalarning tez qoplanishi bilan tavsiflanadi;
- yangi hududlarni o‘zlashtirishning boshlovchisi hisoblanadi;
- tabiat va madaniy merosni qo‘riqlashning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Turizmning jamiyatga ta’sirini uch tarafdan - iqtisodiy, sotsial va gumanitar ahamiyatiga qarab o‘rganish maqsadga muvofiq.

Turizmning iqtisodiy ahamiyatiga ikki tomonlama: iqtisodiy kompleks va iqtisodiy o‘sishning muhim katalizatori sifatida yondashish mumkin.

Iqtisodiy kompleks sifatida uning rivojlanishi, asosan, dunyo xo‘jalik aloqalarini o‘rnatish va mamlakatlararo madaniy-iqtisodiy munosabatlarning taraqqiy etishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy o‘sishning muhim katalizatori sifatida esa turizm yalpi ichki mahsulotning davlatlararo qayta taqsimlanish kanali sifatida namoyon bo‘ladi. Halqaro turizmning yuksalishi O‘zbekistonga chet ellik turistlar oqimining o‘sishiga va mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida turizm ulushining oshishiga ta’sir etmoqda. Bu xorijiy mamlakatlarda yaratilgan qo‘shimcha qiymatning ma’lum bir qismi, mahalliy turistik korxonalar xizmati orqali yurtimizga kirib kelishi demakdir.

Shu sababdan ham, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan «2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasida qayd etilganidek: «2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi qulay iqtisodiy sharoitlar va omillarni yaratish bo‘yicha olib borilayotgan isloxotlarning samaradorligini oshirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish bo‘yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, uning

ISSN 3030-3907

iqtisodiyotdagi o‘rni va ulushini oshirish, xizmatlarni diversifikatsiyalash va ularning sifatini oshirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan».

Turistik korxonalar daromadlari turistik harajatlar natijasida shakllanadi. Chunki, harajat qilmasdan turib daromad olib bo‘lmaydi. Turistik harajatlar o‘z ichiga quyidagilarga haq to‘lashni oladi:

- kompleks tashriflarga;
- turlar va dam olish uchun xizmatlar paketiga;
- joylashtirishga;
- ovqatlanishga;
- transportga;
- faoliyatning rekratsion, madaniy va sport turlariga;
- sayohatning ajralmas qismi hisoblangan iste’mol mollarini harid qilishga;
- tibbiy xizmat ko‘rsatishga va boshqalarga.

Qayd qilingan turistik harajatlar iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Turistik faoliyatning rivojlanishi, uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi hissasini oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-2025 yillarga mo‘ljallangan turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha Konsepsiyada «2021- 2025 yillarda - mamlakat iqtisodiyotida turizm industriyasi ulushini ko‘paytirish. Ushbu yo‘nalishda zarur infratuzilmani rivojlantirish va dunyo bozorida respublikaning turizm salohiyatini targ‘ib qilish orqali mamlakatning yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini 5 foizgacha (2017 yil yakuni bo‘yicha - 2,3%) yetkazish, shuningdek, 2025 yil yakuniga qadar 9 milliondan ortiq turistlarni, shu jumladan uzoq xorijdan - 2 million turistni jalb qilish belgilab qo‘yilgan».

1-jadval ma’lumotlaridan ma’lumki 2025 yilda 2018 yilga nisbatan O‘zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar soni 2,2 barobarga, turizm xizmatlari eksporti - 2,1 barobarga, ichki turistlar soni - 1,6 barobarga, mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari soni - 3,3 barobarga, shuningdek, turoperatorlar soni -1, 5 barobarga ko‘payadi. Bunday sur’atlarda rivojlanish, tabiiyki, turizm va mehmonxona xo‘jaligining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini oshiradi.

1-jadval

2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari

T/r	Ko‘rsagkichlar nomi	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil

ISSN 3030-3907

1.	O‘zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar soni (ming kishi)	5346	6041	7010	8410	10010	10600	11250	11810
2.	Turizm xizmatlari eksporti (mln AQSh dollari)	1041	1180	1360	1620	1 900	2 000	2 080	2 170
3.	Ichki turistlar soni (mingga tashrif)	15493	16100	17230	18806	20317	21867	23404	25010
4.	Mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari soni (dona)	914	1100	1620	2200	2600	2800	2900	3050
5.	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming)	20,2	24	35	47	55	59	62	64
6.	Joylashtirish vositalaridagi o‘rinlar soni (ming)	41	49	72	95	110	122	124	128
7.	Turoperatorlar soni (nafar)	983	1100	1190	1250	1320	1390	1420	1450

Turizm mamlakat iqtisodiyotining ko‘pgina sohalariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi:

1. Tadbirkorlik sohasida. Turistik korxonalar tashkil etilishi iqtisodiyotga naf keltiradi: mijozlarga o‘z mahsulotlari va xizmatlarini taklif etadi, ishchi va xizmatchilar mehnat haqini olishadi, aksionerlarga foydaning bir qismi dividend sifatida to‘lanadi, davlat byudjetining daromad qismiga soliq va yig‘imlar tushadi.

2. Iste’mol va daromad sohasida. Turizm iste’mol talabining yangi shakllarini yaratadi. Turistlarning turli xildagi tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan talabi mahalliy sanoatning rivojlanishiga imkoiiyat yaratadi. Unga ko‘ra iste’mol mollarini ishlab chiqarish rivojlanadi va aholining hayot darajasi oshadi.

ISSN 3030-3907

3. Valyuta oqimiga. Turizm katta hajmdagi chet el valyutasi oqimini ta'minlaydi. Xususan chet el valyutasining kelib tushishi nafakdt tur (paket) uchun haq to‘lash shaklida, balki turistik markazda - kundalik ehtiyojlar va qo‘shimcha xizmatlarga haq to‘lash maqsadida turistlarning xorijiy valyutani O‘zbekiston valyutasiga almashtirishi tufayli ham ro‘y beradi.

4. Ishlab chiqarish infratuzilmasiga. Turizm dam olish strukturasini yaratadi. Bu ob'yektlardan, nafaqat turistlar, ayni paytda, mahalliy aholi ham foydalanishadi. Yangi turistik markazlarning shakllanishi savdo markazlarining paydo bo‘lishiga, yo‘llarning qurilishiga, xordiq chiqarish maskanlarining vujudga kelishiga olib keladi, shuningdek, iste'mol bozoriga va boshqa tadbirkorlik faoliyatlariga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Turistik infratuzilmaning rivojlanishi u yoki bu hududdagi aholining hayot darajasining ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Turizm o‘z-o‘zidan samarali ravishda rivojlana olmaydi. Turizmning iqtisodiy aktivligi bevosita mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi bilan bog‘liq.

Turizm tarmog‘i faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun mamlakatda turizm xizmat ko‘rsatish komgsheksining boshqa tarmoqlari bilan parallel ravishda rivojlanishi lozim.

Turizmning sotsial ahamiyati jamiyat uchun quyidagilardan iborat:

- jamiyatning psixofiziologik resurslari va insonning mehnat qobiliyatining tiklanishi;
- bo‘sh vaqtdan tejamli foydalanish;
- ish joylarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash;
- mahalliy aholi madaniyatiga ta'sir ko‘rsatish;
- korxonalarda band bo‘lganlarning daromadini ta'minlash;
- rekreatsion jarayonlarni jadallashtiradi.

Sotsial nuqtai nazardan turizmning asosiy funksiyasi bo‘lib, insonning ishlab chiqarish majburiyatlarini bajarish chog‘ida sarflangan kuchlarini tiklash hisoblanadi. U ko‘pincha asabning taranglashishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Turistik dam olish - bu muhitning almashishi kundalik hayot tarzining o‘zgarishi, xordiq chiqarish madaniyati, yangi joy odamlari bilan tanishish, dunyoqarashni kengaytirish va xokazolar. Bularning barchasi inson kuchini tiklashga imkon yaratadi.

Turistik korxonalar turistlarga o‘z xizmatlarini taklif qila turib, ularni dam olishga jalb etadi. Turistlar dam olishga, ta'tilni tejamli va foydali o‘tkazish imkoniga ega bo‘lishadi.

Yoshlarni qiziqarli sayohatlarga jalb qilishiga imkon yaratadigan turistik klublarning rivojlanishi sog‘lom avlodning shakllanishiga imkoniyat yaratadi.

ISSN 3030-3907

Turistik korxonalarning o‘z vazifalarini bajarishlaridan insonlarning ma’naviy va jismoniy sog‘ligiga bog‘liq bo‘ladi.

Rivojlangan turistik industriyaning mavjudligi ishchi kuchi bandligi muammosini hal etadi. Turizm ko‘p mehnat talab qiladigan, harajatli tarmoqlardan biri hisoblanadi. Shu sababli turizmning rivojlanishi ishsizlikni kamaytiradi. Halqaro Turistik Tashkilot ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi har 15 ish joyi turistik biznesga to‘g‘ri keladi.

Turizm aholi turmush darajasining oshishiga ta’sir ko‘rsatadi. Turizm xizmatlariga boshqa tarmoqlarga qaraganda yuqori haq to‘lanadi.

Zamonaviy turizm ekologik xolatga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan atrof-muhitga ma’lum darajada zarar ko‘rsatadi. Ya’ni transport harakati jadallashishi natijasida xavoning buzilishi, yerdan samarasiz foydalanish (turistlar dam olish bo‘yicha o‘z ehtiyojlarini qondirishni, atrof-muhitdan foydalanish va uni saqlash bo‘yicha qayg‘urishdan ustun qo‘yishadilar).

Ikkinchi tomondan turizm tabiiy, madaniy va tarixiy ob’yektlarni avaylab asrash, ekologiya va rekreatsiyani qo‘llab-quvvatlashdan manfaatdordir, chunki bular turistik faoliyatning rivojlanishiga daxldordir. Ulardan oqilona foydalanish hamda ularning yaxshi xolatda bo‘lishiga ko‘maklashish turistlarga yaxshi dam olishga imkon beradi va turistik korxona reytingini oshiradi.

Turizmning mahalliy aholi hayotiga salbiy ta’siriga quyidagilar kiradi:

- malakasiz mehnat hissasining oshishi;
- alkogolizm, janjallarning oshishi;
- yoshlarning hayotga yengil qarashi;
- madaniyatning tijoratlashishi;
- mahalliy aholi va turistlar o‘rtasidagi mojarolar.

Turizmning gumanitar ahamiyati shundaki, turistlar - tashrif etgan davlatlar aholisining madaniy va tarixiy qadriyatlari, hayoti, tarixi, urf-odatlari bilan yaqindan tanishadilar, tabiat resurslarini hamda diqqatga sazovor joylarni ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Ekskursiyada ko‘rilgan va eshitilgan narsalar xotirada uzoq vaqt qoladi. Turli davlatlar halqlari madaniyati va urf-odatlari bilan tanishish, dunyoqarashni kengaytiradi, insonni ma’naviy oziqlantiradi.

Turizmni rivojlantirish afzalliklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- hududga pul oqimlarining oshishi, shu jumladan, chet el kapitalining;
- yalpi ichki mahsulotning oshishi;
- yangi ish joylarining yaratilishi;
- investitsiyalarning jalb qilinishi, shu jumladan, chet el investitsiyalarining;
- davlat byudjetiga soliq tushumlarining oshishi.

Turizmni rivojlantirishning salbiy oqibatlariga quyidagilar kiradi:

ISSN 3030-3907

➢ mahalliy tovarlar va xizmatlar, tabiat resurslari va ko‘chmas mulkka raqobatning oshishi.

➢ turistik importda pullarning chetga chiqib ketishi;

➢ ayrim turistlar harakati natijasida paydo bo‘ladigan ekologik va sotsial muammolar;

➢ hududda faqatgina turizmga ustuvorlik berilsa, qolgan tarmoqlarning yetarli darajada rivojlanmasligi.

O‘zbekistonda turizm yosh tarmoq hisoblanadi. Shu sababdan ham u davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib turibdi.

ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “TURIZM TO‘G‘RISIDA”gi Qonuni, 18.07.2019 yildagi O‘RQ-549-son.

2. 2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш КОНЦЕПЦИЯСИ. // Ўзбекистон Республикаси Президентини 2019 йил 5 январдаги «Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида», ПФ-5611 -сон Фармонига 1 -илова.

3. Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduhamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi.-Toshkent: Fan va texnologiya, 2018

4. Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich., Mamasidiqov Baxodir Abduboqi o‘g‘li. Scientific basis of tourism development. International Journal For Multidisciplinary Research (IJFMR) Vol. 49 (2024): Miasto Przyszłości 1689-1694

5. Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich., Turgunbayeva Kamola Sherzodbek kizi. Tourism Factors in the Economy of Developing Countries. Journal of Ethics and Diversity in International Communication. e-ISSN: 2792-4017. Volume:2Issue: 9in Sep-2022: 57-61

6. Mamasoliyev Gayratbek1, Poziljanov Khumoyunmirzo2. The role of ecological tourism in the socio-economic life of Uzbekistan. Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 22 Mar 2022

ISSN 3030-3907